

QORAQALPOQISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ HUDUDLARIDA YOSHOVCHI MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA REFRAKSIYA ANOMALIYALARI

Kurbanazarov M.K.¹, Abdullaeva N.Dj.², Arzibaev Sh.D.³

1. PhD, Oftalmologiya kafedrasini mudiri, Qoraqalpogiston tibbiyot instituti, kurbanazarov63@mail.ru, +99890 590-31-97, <https://orcid.org/0009-0003-1496-6885>

2. Oftalmologiya kafedrasini assistenti, Qoraqalpogiston tibbiyot instituti, nuriya.77@inbox.ru, +99890 709-55-73, <https://orcid.org/0009-0007-0471-9820>

3. Oftalmologiya kafedrasini assistenti, Qoraqalpogiston tibbiyot instituti, chingisarzibaev@gmail.com, +99891 370-96-69, <https://orcid.org/0009-0003-1496-6885>

Annotatsiya. Dolzarbligi. Sog'liqni saqlash mintaqaviy tizimini takomillashtirish, aholining, ayniqsa bolalar va ayollarning sog'lomlik darajasini oshirish, sanitariya-epidemiologik vaziyatni yaxshilash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, kundalik hayotga oilaviy salomatlik madaniyatini joriy etishga ko'maklashish Davlatimizning strategik dasturlariga kiritilgan. **Tadqiqot maqsadi.** Qoraqalpogiston Respublikasi qishloq joylarda yashovchi maktab o'quvchilarida kasalliklar strukturasini o'rganish. **Materiallar va usullar.** Kegeyli tumanidagi 1, 55, 19-son hamda Chimboy tumanidagi 32, 49-sonli umumta'lim maktablari o'quvchilari. Maktab o'quvchilarining keng qamrovli tekshiruv antropometriya, yurak urish tezligini o'lchash, tashqi tekshiruv (teri, og'izning ko'rinadigan shilliq pardalari, tishglar, ko'zlar, limfa tugunlari), auskultatsiya, palpatsiya, viziometriya, ko'zning tashqi lateral yoritilishi, skiaskopiya, oftalmoskopiya va bolalar kasalliklarini integral olib borish bo'yicha JSST ko'rsatmalari yordamida o'tkazildi. Mintaqadagi vaziyatni qiyosiy baholash uchun ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari o'rganildi. **Natijalar va hulosalar.** Tekshiruvdan o'tgan maktab o'quvchilari orasida deyarli sog'lom bolalar ulushi 17-20% ni tashkil etdi. Somatik patologiyalarning 80% gacha kamqonlik, 33% tish kariyesi, 11,3% tonzillit, 10% gacha gelmintozlar, lekin ayrim guruhlarda gelmintozlar 28% gacha aniqlangan. Bolalarning 30% ga yaqinida kamqonlik, tish kariyesi, tonzillit, gelmintozlar kabi 2-3 ta patologiya birgalikda kelishi aniqlangan. Ko'rik davomida 10% dan kam bolalarda adenoidlar, gipotireoz va boshqa kasalliklar ko'zatilgan. O'rganilayotgan maktab o'quvchilari sonida deyarli sog'lom bolalarga qaraganda turli patologiyalari bo'lgan bolalar ustunlik qiladi. Oftalmologik patologiya tarkibida akkomodatsiya spazmi 7 yoshli bolalarda 23% gacha va engil miyopiya 12% gacha, 10% dan kam bo'lgan holatlarda g'illaylik, gipermetropiya, ambliopiya holatlari aniqlandi.

Kalit so'zlar: tibbiy ko'rik, vizometriya, maktab o'quvchilari, kamqonlik, gelmintlar, akkomodatsiya spazmi, miyopia.

Iqtibos uchun:

Kurbanazarov M.K., Abdullaeva N.Dj., Arzibaev Sh.D. Qoraqalpogiston respublikasi qishloq hududlarida yashovchi maktab yoshidagi bolalarda refraksiya anomaliyalari. Ilg'or oftalmologiya 2025;13(2):36-40.

АНОМАЛИИ РЕФРАКЦИИ У ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА, ПРОЖИВАЮЩИХ В СЕЛЬСКИХ РЕГИОНАХ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН

Курбаназаров М.К.¹, Абдуллаева Н.Дж.², Арзыбаев Ш.Д.³

1. PhD, заведующий кафедрой Офтальмологии, Медицинский институт Каракалпакстана, kurbanazarov63@mail.ru, +99890590-31-97, <https://orcid.org/0009-0003-1496-6885>

2. Ассистент кафедры Офтальмологии, Медицинский институт Каракалпакстана, nuriya.77@inbox.ru, +99890 709-55-73, <https://orcid.org/0009-0007-0471-9820>

3. Ассистент кафедры Офтальмологии, Медицинский институт Каракалпакстана, chingisarzibaev@gmail.com, +99891 370-96-69, <https://orcid.org/0009-0003-1496-6885>

Аннотация. Актуальность. Совершенствование региональной системы здравоохранения, повышение уровня здоровья населения, особенно детей и женщин, улучшение санитарно-эпидемиологической обстановки, пропаганда здорового образа жизни, содействие внедрению в повседневную жизнь культуры семейного здоровья включены в стратегические программы нашего государства. **Цель исследования.** Изучение структуры заболеваний среди школьников, проживающих в сельской местности Республики Каракалпакстан. **Материалы и методы.** Обследованы учащиеся средних школ № 1, 55 и 19 Кегейлийского района и № 32 и 49 Чимбайского района.

Проведено комплексное обследование школьников с использованием антропометрии, измерения частоты сердечных сокращений, наружного осмотра (кожи, видимых слизистых оболочек полости рта, зубов, глаз, лимфатических узлов), аускультации, пальпации, визиометрии, наружного бокового освещения глаза, скиаскопии, офтальмоскопии, рекомендаций ВОЗ по комплексному лечению болезней детского возраста. Для сравнительной оценки ситуации в регионе были изучены данные научной литературы. **Результаты и заключение.** Среди школьников, прошедших обследование, процент практически здоровых детей составил 17–20%. В структуре соматической патологии до 80% составляла анемия, 33% – кариес зубов, 11,3% – тонзиллит, до 10% – гельминтозы, а в отдельных группах гельминтозы выявлялись до 28%. Установлено, что около 30% детей имеют одновременно 2–3 патологии: анемию, кариес зубов, тонзиллит, гельминтозы, менее чем у 10% детей были выявлены аденоиды, гипотиреоз и другие заболевания. В составе обследованных школьников преобладают дети с различной патологией по сравнению с практически здоровыми детьми. В структуре офтальмологической патологии спазм аккомодации выявлялся у 23% детей 7 лет, миопия слабой степени – у 12%, астигматизм, дальнозоркость и амблиопия – менее чем в 10% случаев.

Ключевые слова: медицинское обследование, визиометрия, школьники, анемия, гельминты, спазм аккомодации, близорукость.

Для цитирования:

Курбаназаров М.К., Абдуллаева Н.Дж., Арзыбаев Ш.Д. Аномалии рефракции у детей школьного возраста, проживающих в сельских регионах Республики Каракалпакстан. Передовая офтальмология. 2025;13(2):36-40.

REFRACTION ANOMALIES IN SCHOOL-AGE CHILDREN LIVING IN RURAL REGIONS OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

Kurbanazarov M.K.¹, Abdullaeva N.Dj.², Arzibaev Sh.D.³

1. PhD, Head of the Department of Ophthalmology, Karakalpakstan medical institute, kurbanazarov63@mail.ru, +99890590-31-97, <https://orcid.org/0009-0003-1496-6885>

2. Assistant of the ophthalmology department, Karakalpakstan medical institute, nuriya.77@inbox.ru, +99890 709-55-73, <https://orcid.org/0009-0007-0471-9820>

3. Assistant of the ophthalmology department, Karakalpakstan medical institute, chingisarzibaev@gmail.com, +99891370-96-69, <https://orcid.org/0009-0003-1496-6885>

Abstract. Relevance. Improving the regional healthcare system, improving the health of the population, especially children and women, improving the sanitary and epidemiological situation, promoting a healthy lifestyle, and promoting the introduction of a family health culture into everyday life are included in the strategic programs of our state. **Purpose of the study.** The aim of the study is to study the structure of diseases among schoolchildren living in rural areas of the Republic of Karakalpakstan. **Materials and methods.** The study involved students from secondary schools No. 1, 55 and 19 in Kegeyli district and No. 32 and 49 in Chimbay district. A comprehensive examination of schoolchildren was conducted using anthropometry, heart rate measurement, external examination (skin, visible mucous membranes of the oral cavity, teeth, eyes, lymph nodes), auscultation, palpation, visometry, external lateral illumination of the eye, skiascopy, ophthalmoscopy, and WHO recommendations for the comprehensive treatment of childhood diseases. For a comparative assessment of the situation in the region, scientific literature data were studied. **Results and conclusion.** Among the schoolchildren who underwent the examination, the percentage of practically healthy children was 17–20%. In the structure of somatic pathology, up to 80% was anemia, 33% – dental caries, 11.3% – tonsillitis, up to 10% – helminthiasis, and in some groups, helminthiasis was detected up to 28%. It was found that about 30% of children have 2–3 pathologies at the same time: anemia, dental caries, tonsillitis, helminthiasis, less than 10% of children were diagnosed with adenoids, hypothyroidism and other diseases. The surveyed schoolchildren are dominated by children with various pathologies compared to practically healthy children. In the structure of ophthalmological pathology, accommodation spasm was detected in 23% of 7-year-old children, mild myopia – in 12%, astigmatism, hyperopia and amblyopia – in less than 10% of cases.

Key words: medical examination, visometry, schoolchildren, anemia, helminths, accommodation spasm, myopia

For citation:

Kurbanazarov M.K., Abdullaeva N.Dj., Arzibaev Sh.D. Refraction anomalies in school-age children living in rural regions of the Republic of Karakalpakstan. Advanced ophthalmology. 2025;13(2):36-40.

Dolzarbli. Aholining, jumladan, yosh avlod salomatligini muhofaza qilish hukumatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-310-son qarori, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etishni takomillashtirish, aholi

o'rtasida kasalliklarning oldini olish va barvaqt aniqlash, aholiga yanada yaqinlashish va tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va kadrlar salohiyatini yanada yuksaltirishga qaratilgan qarori mavjud [1]. Maktabda o'qish vaqti bolaning jadal

o'sishi va rivojlanishi davriga to'g'ri keladi, bu vaqtda organizm qo'lay va noqo'lay ekologik sharoitlarning ta'siriga eng sezgir.

Maktabda o'qishning butun davri davomida o'quvchilarning sog'lig'iga o'quv yuklarining ko'payishi, bolaning tanasining jismoniy va psixologik imkoniyatlarini hisobga olmasdan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ta'lim tizimini modernizatsiya qilish ta'sir qiladi.

Ko'pgina mualliflar «maktab» patologiyasi namoyon bo'lgan, jumladan «maktab skoliozi», «maktab miopiyasi» mavjud bolalar sonining ko'payishini qayd etadilar [9].

O'rganilgan hududlarda maktab o'quvchilari orasida anemiya, gelmintozlar va miyopiya kabi keng tarqalgan patologiyalarning holati tahlil qilindi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST)ning temir tanqisligi kamqonligi (TTK) bo'yicha pozitsiyasi quyidagicha: TTK chastotasi uning aholi orasida tarqalishi 4,9% va undan past bo'lsa normal holat, 5-19,9% - zaif, o'rtacha - 20-39,9%, chastotasi 40% va undan ko'p bo'lsa, tarqalish kuchli deb hisoblanadi va bu muammoni davlat darajasida hal qilishni talab qiladi [3].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, anemiyaning dunyoda tarqalishi 22,9-26,7% ni tashkil qiladi. Ilmiy adabiyotlar ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda kamqonlikning tarqalishi 5 dan 31% gacha bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 66,7% ga yetishi mumkin [6]. TTK chastotasi aholining geografik, ijtimoiy va ijtimoiy-maishiy sharoitlariga bog'liqligi ko'rsatilgan. Qozog'istonda Aqto'be, Pavlodar va Shimoliy Qozog'iston viloyatlarida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, reproduktiv yoshdagi ayollarning 46,7, 45,6 va 40,6 foizida va 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning 48,6, 44,9 va 40,0 foizida kamqonlik aniqlangan [6]. TTK rivojlanishiga aholining eng zaif guruhlariga yosh bolalar (3 yoshgacha), o'smirlar (asosan qizlar) kiradi. O'zbekistonda TTK homilador ayollarning 80 foizida, tug'ish yoshidagi ayollarning 60 foizida va maktab yoshidagi bolalarning 57 foizida uchraydi [2].

O'zbekistonning turli hududlarida o'tkazilgan epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, eng zaif xavf guruhlar orasida TTK ko'rinishidagi manifest temir tanqisligi (TT) aniqlanish darajasi yuqori.

Shu bilan birga, TTK ekologik muammoli hudud hisoblangan Janubiy Orolbo'yi mintaqalaridagi xavf guruhlarida sezilarli darajada keng tarqalgan bo'lib, bu. Global statistik ma'lumotlarga ko'ra, erta yoshdagi bolalarda TTK tarqalishi 8,2 dan 39,5% gacha [2].

Gelmintozlar jahon miqyosidagi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Kasallangan aholining yuqori darajasi, ko'plab invazivlik holatining uzoq davom etishi, hatto nogironlikka olib kelishi ushbu kasalliklar guruhining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini belgilaydi.

Parazitning zaharli moddalarining markaziy asab tizimiga ta'siri natijasida bemorlarda zaiflik,

apatiya, bosh og'rig'i, asabiylashish kuchayadi. Ko'pincha, ayniqsa bolalarda mushaklarning siqilishi, konvulsiyalar, epileptik va isterik tutilishlar, astma xurujlari va boshqa jiddiy asoratlar paydo bo'ladi [4].

Hozirgi vaqtda maktab o'quvchilarida miyopia jiddiy muammo hisoblanadi. Maktabning quyi sinflarida uning tarqalishi 6-8% ni tashkil qiladi va maktabni tugatish davrida u kamida 25-30% ni tashkil qiladi [5].

Miyopia, ko'zning optik muhitida nur sindirishning nomutanosibligining eng keng tarqalgan turi sifatida, ko'pincha orttirilgan bo'ladi. Miyopia rivojlanishi odatda maktabda o'qish yoshining boshlanishi bilan bog'liq, lekin tobora ko'proq uning boshlanishiga moyillik maktabgacha yoshda sodir bo'ladi [8,9].

Rossiyaning ba'zi hududlarida bolalarning 2,4 foizi birinchi sinfga kirishda allaqachon miyopiyaga ega bo'lgan. Beshinchi sinfga kelib, miyopik bolalar soni 8 marta oshib, 19,7% ga etgan, 11- sinfga kelib - 36,8% da aniqlangan.

Maktab o'quvchilarida miyopia tez rivojlanishi bilan ajralib turadi. 11-sinfning oxiriga kelib, maktab o'quvchilarining 20 foizi, ba'zi mutaxassislarining fikriga ko'ra, 30-40 foizi miyopiyadan aziyat chekmoqda [8,10].

Toshkent shahridagi maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra shuni ta'kidlash joizki, o'rganilayotgan yosh guruhlarida bolalarning optik tizimning nur sindirishi nuqsonlari bilan aniqlangan bemorlar ulushi 21-65 foizni tashkil etgan bo'lsa, 7 yoshda miyopiya atigi 7 foiz holatda aniqlangan bo'lsa, 11 yoshga kelib bu ko'rsatkich 34 foizga oshib, 15 yoshda 42 foizga, yani 6 barobarga oshgan [7].

Tadqiqot maqsadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq joylarida yashovchi 7-15 yoshli bolalarda tez-tez uchraydigan patologiyalarni erta aniqlash.

Material va o'rganish obekti. Kegeyli tumanidagi 1, 55, 19-son hamda Chimboy tumanidagi 32, 49-sonli umumta'lim maktablari o'quvchilari.

Tadqiqot usullari. Maktab o'quvchilarining keng qamrovli tekshiruv antropometriya, yurak urish tezligini o'lchash, tashqi tekshiruv (teri, og'izning ko'rinadigan shilliq pardalari, tishglar, ko'zlar, limfa tugunlari), auskultatsiya, palpatsiya, viziometriya, ko'zning tashqi lateral yoritilishi, skiaskopiya, oftalmoskopiya va bolalar kasalliklarini integral olib borish bo'yicha JSST ko'rsatmalari yordamida o'tkazildi. Mintaqadagi vaziyatni qiyosiy baholash uchun ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari o'rganildi.

Tadqiqot natijalari. Jami 1172 nafar bola (615 nafar o'g'il - 52,5 % va 557 nafar qiz - 47,5 %) tibbiy ko'rikdan o'tkazildi, shundan Kegeyli tumanida jami 989 nafar bola (shundan 507 nafari (51,3 %) o'g'il bolalar, 482 nafari (48,7 %) qiz bolalar, Chimboy tumanida 183 nafar, shundan 108(59%) o'g'il bolalar, 75 (41%) qizlar.

Maktab o'quvchilari o'rtasida somatik patologiyaning tuzilishi. Kegeyli tumanida 916 nafar

maktab o'quvchisidan 162 nafar (17,7 foiz) bolaning sog'lig'idan shikoyati bo'lmagan, shundan 79 nafari (28,8 foizi) qizlardir.

735 (80,2%) bolalarda engil va o'rtacha og'irlikdagi anemiya aniqlangan, shundan 303 (41,2%) bolalarda tish kariesi aniqlangan, shundan 108 (45%) nafari qizlar, bolalarda tonisillit 82(8,9%), shundan qizlar 46(56%)ni tashkil etdi. Gelmintoz belgilari 94 (10,2%) oquvchilarda, shulardan qizlar da- 33 (35,1%) kuzatildi.

Bularga qo'shimcha ravishda adenoidlar, hipotiroidizm, 1-toifa qandli diabet va tug'ma yurak nuqsonlari bilan og'rig'an 10% dan kam sonli bolalarda aniqlandi.

Chimboy tumanida 183 nafar maktab o'quvchilaridan 37 nafari (20,2 %) somatik kasalliklardan shikoyati yo'q, shundan 17 nafari (53,1 %) qizlar. Kasallik aniqlanganlardan 155 (84,6%) nafari oquvchida anemiya, shundan 76(49%) nafari qizlar, tish kariesi – 62 nafari (33,9 %), ulardan 25(40,3%) nafari qiz bolalar; 6 (3,3%) nafari oquvchida tonizillit, ulardan 1 nafari (16,7%) , 18 ta (9,8%) nafari bolada gelmintoz belgilari, ulardan 4 nafari (22,3%) qizlar.

Oftalmologik patologiyaning tarkibi. Kegeyli tumanida ko'rikdan o'tkazilgan 916 nafar o'quvchilardan 503 nafari 7-10 yoshli. 7 yoshli bolalarda akkomodatsiya spazmi-23%, miyopia engil darajasi- 6,8%; 8 yoshdagi-19,8% bolalarda akkomodatsiya spazmi, 8%-bolalarda engil darajali miyopia; 9 yoshda-13,4% bolalarda akkomodatsiya spazmi, 7,05% -bolalarda engil miyopia; 10 yoshda-16,6% bolalarda akkomodatsiya spazmi, 11,1% bolalarda engil miyopia ko'zatildi.

Chimboy tumanida 183 nafar maktab o'quvchisining 148 nafari 7-10 yoshli bolalardir. 7 yoshli bolalarda akkomodatsiya spazmi -5,9%, engil darajali miyopia 11,8%; 8 yoshli bolalarda - akkomodatsiya spazmi 15,3%, engil darajali miyopiya 12,8% bolalarda aniqlandi. Tekshiruvdan otgan o'quvchilarning 10 % da miyopiya orta darajasi, g'ilaylik, ambliopiya aniqlandi

Tekshiruvdan o'tgan 7-10 yoshdagi bolalarda yuqori darajadagi miyopia aniqlanmadi.

Muhokama. Tekshiruvdan o'tgan maktab o'quvchilari orasida deyarli sog'lom bolalar ulushi 17-20% ni tashkil etdi. Somatik patologiyalarning 80% gacha kamqonlik, 33% tish kariyesi, 11,3% tonzillit, 10% gacha gelmintozlar, lekin ayrim guruhlarda gelmintozlar 28% gacha aniqlangan. Bolalarning 30% ga yaqinida kamqonlik, tish kariesi, tonzillit, gelmintozlar kabi 2-3 ta patologiya birgalikda kelishi aniqlangan. Ko'rik davomida 10% dan kam bolalarda adenoidlar, gipotireoz va boshqa kasalliklar ko'zatilgan.

Oftalmologik patologiya tarkibida akkomodatsiya spazmi 7 yoshli bolalarda 23% gacha va engil miyopiya 12% gacha, 10% dan kam bo'lgan holatlarda g'ilaylik, gipermetropiya, ambliopiya holatlari aniqlandi.

O'g'il bolalar (52%) va qizlar (48) o'rtasida mavjud patologiyalarning nisbati katta farq qilmaydi. Qizlar

orasida ba'zi patologiyalar ustunlik qildi (tonzillit 56% gacha).

O'rganish natijalariga ko'ra maktab davrida hosil bo'lgan kasalliklar bolaning har tomonloma rivojlanishiga nojuya tasir ko'rsatadi. Shu sababli anemiya va gelmint infeksiyalarini o'z vaqtida tashxislash va davolash epileptik tutilishlar, ko'rishning buzilishi, allergik reaksiyalar, rivojlanishida tengdoshlaridan orqada qolishlar, jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar - vulvovaginit, o'pkaning turli xil kasalliklari, miya va yurak shikastlanishi, aqliy rivojlanishning kechikishi kabi mumkin bo'lgan asoratlarning hosil bo'lishining oldini oladi. Maktabda o'qish paytida miyopia paydo bo'lishi bir qator sabablar bilan bog'liq, shu jumladan maktab sinflarida yorug'lik bilan bog'liq muammolar, umumiy jismoniy harakatsizlik va ko'rish stressi, siliyar mushaklarning haddan tashqari kuchlanishi bilan birga keladi.

Masofaga qarashda yuzaga keladigan siliyer mushakning zarur bo'shashishi bo'lmasa, akkomodatsiya spazmi paydo bo'ladi, bu «ishchi» miyopiyaning dastlabki, qo'zg'atuvchi momenti hisoblanadi.

Ko'z refraktsiyasi kasalliklari, jumladan miyopia rivojlanishida maktab o'quvchilarining oilaviy hayoti (ota-onalari bilim darajasi, moddiy farovonlik va boshqa), zamonaviy texnik vositalar (kompyuterlar, video o'yin pristavkalari, mobil telefonlar va boshqalar) bilan ta'minlanishi, foydalanish holati bilan bog'liq ijtimoiy va gigienik hamda atrof-muhitning noqulay omillarning ahamiyatiga e'tibor berish kerak.

Shuningdek, maktab o'quvchilarida miyopia kelib chiqishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan «tashqi» omillarning ta'sirlarini (bolaning jismoniy faolligi etarli emasligi, kun tartibiga rioya qilmasligi, bolaning belgilangan muddatlarda oftalmolog korigidan otmasligi), noto'g'ri ovqatlanish (zarur vitaminlar va mikroelementlarning etishmasligi) bartaraf qilish katta ahamiyatga ega.

Xulosa. Qishloq hududlarida yashovchi maktab o'quvchilarini o'rganishimiz natijalariga ko'ra, biz amalda sog'lom bolalar ulushi 20% gacha ekanligini aniqladik. Ko'rikdan o'tkazilgan bolalarning 80%ida turli patologiyalar, shu jumladan bir vaqtning o'zida 30% dan ortiq bolalarda 2-3 xil kasalliklar aniqlandi.

Bizning tekshiruv natijalariga ko'ra 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda anemiya, tish kariesi, tonzillit, gelmintlar, akkomodatsiya spazmi, miyopia kabi keng tarqalgan patologiyalarning ko'rsatkichlari jahon ilmiy adabiyoti ma'lumotlari darajasidan biroz oshadi.

Shunday qilib, o'rganilayotgan maktab o'quvchilari sonida deyarli sog'lom bolalarga qaraganda turli patologiyalari bo'lgan bolalar ustunlik qiladi, bu esa bolalarning sog'lig'i holatini yanada chuqurroq o'rganish va hududda maqsadli profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirlarini amalga oshirish zarurligini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR/ REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-310-son qarori
2. Arziqulova D., Abdullaeva D., Xafizova Z., Maqsudova X. Kattalar va bolalar o'rtasida temir tanqisligi holatlarining tarqalishi, O'zbekiston Respublikasida temir tanqisligining bolalar o'sishi va rivojlanishidagi ahamiyati. Xalqaro ilmiy pediatriya jurnali. 2022;4:5–15.
3. Balashova E. A. Ambulatoriya bosqichida bolalarda temir tanqisligi holatlarining diagnostikasini optimallashtirish. Tibbiyot fanlari doktori dissertatsiyasi. Samara 2020. 255.
4. Gavrilova E.P., Kirpichnikova G.I., Kuznetsov N.I., Romanova E.S., Startseva G.Yu., Vasilev V.V. Gelmintozlar: umumiy xususiyatlari, diagnostikasi, davolash. Rossiya oilaviy shifokori. 2016; 20(4): 26-34.
5. Gorbachevskaya I.N., Orel V.I., Brjeskiy V.V., Ershova R.V. Shahar maktab o'quvchilarida miyopi rivojlanishiga olib keladigan ijtimoiy va gigienik omillar. Pediatr. 2019;10(5):35–41.
6. Sadykova K. Z., Shalharova J., Shalharova J., Nuskabaeva G. O., Sadykova A. D., Junisova M. B., Madenbay K. M., Grjibovskiy A. M. Qozog'iston janubidagi Turkiston shahri aholisida kamqonlikning tarqalishi, uning ijtimoiy-demografik determinantlari va metabolik sindrom bilan mumkin bo'lgan bog'liqligi. Inson ekologiyasi 2015.08 58–64.
7. Saliev I.F., Nazarova G.K., Urmanova F.M. Maktab yoshidagi bolalarda sinishi xatolarining tarqalishi. Skrining tadqiqoti. Fanlaaro Markaziy Osiyo tadqiqot jurnali (CARJIS). 2022;2(2): doi: 10.24412/2181-2454-2022-2-87-92 2
8. Tarutta E.P., Proskurina O.V., Tarasova N.A., Markosyan G.A. Maktabgacha va erta maktab yoshida miyopi rivojlanishi uchun xavf omillarini tahlil qilish. Sog'liqni saqlash xavfini tahlil qilish. 2019.
9. Tepper E.A., Taranushenko T.E., Grishkevich N.YO. O'n yillik o'qish davomida maktab patologiyasini shakllanish xususiyatlari. Saratov ilmiy-tibbiy jurnal. 2013;9(1):101–106.
10. Shayxova G., Asqarova N. Tez-tez kasal bo'lgan bolalarda maktabgacha miyopia va boshqa ko'rish buzilishining oldini olish bo'yicha gigienik tavsiyalar. // Jamiyat va innovatsiyalar. 2021;2(2): 278–288. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss2-pp278-288>.

СОГЛАСИЕ ПАЦИЕНТОВ: согласие пациента не требуется.

ЗАЯВЛЕНИЕ. «Конфликт интересов: не заявлен».

АВТОРСКИЙ ВКЛАД:

Курбаназаров М. написание статьи, внесение существенного вклада в разработку концепции и дизайна работы;

Абдуллаева Н- написание статьи и ее редактирование с целью повышения ее научной значимости.

Арзыбаев Ш. сбор, анализ, интерпретация полученных данных;